«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ
Kuzatuv kengashining
2023-yil «23» fevral dagi 1/23-son qaroriga

1 - ILOVA

**“Dehqonobod kaliy zavodi” Aksiyadorlik jamiyatining**
**Kuzatuv kengashi yig‘ilishlarini sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan), shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish**
**REGLAMENTI**



**MUNDARIJA**

I. Umumiy qoidalar
II. Kuzatuv kengashi yig‘ilishlarini sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan), shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi
III. Yakunlovchi qoidalar

## I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, boshqa qonunchilik aktlari, «Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining Ustavi (matn bo‘yicha «Jamiyat»), Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-son yig‘ilishi bayoni bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi, «Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining Nizomiga muvofiq ishlab chiqilgan, kuzatuv kengashi yig‘ilishlarini sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan), shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibini belgilaydi.

## II. Kuzatuv kengashi yig‘ilishlarini sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan), shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi

2. Jamiyat Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan), shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkazilishi mumkin.

3. Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari quyidagi masalalar bo‘yicha so‘rov yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkin emas:

- Jamiyat moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari rejalarini tasdiqlash;
- Yagona aksiyadorning yillik umumiy yig‘ilishini chaqirish, umumiy yig‘ilishni chaqirish va o‘tkazish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish;
- Jamiyat yillik hisobotini dastlabki tasdiqlash;
- Yagona aksiyadorning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni bekor qilish yoki chaqirish;
- Kuzatuv kengashi raisini saylash yoki qayta saylash;
- Jamiyat ijroiya organini shakllantirish va uning vakolatini muddatidan ilgari tugatish, agarda ushbu masala jamiyat Ustavida Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan bo‘lsa;
- Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish bo‘yicha yagona aksiyadorning umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun takliflar ishlab chiqish;
- Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatini aniqlashni tashkillashtirish;
- Jamiyat ichki audit xizmatini tuzish;
- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 8-bobiga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigacha tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 9 – bobiga asosan Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

4. Jamiyat faoliyatiga doir va Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar (ushbu tartibning 3-bandida ko‘rsatilgan masalalardan tashqari) bo‘yicha Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari so‘rov yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkin.

5. Kuzatuv kengashining yig‘ilishlari so‘rov yo‘li bilan o‘tkazilgandan keyin 10 (o‘n) kundan kechiktirmay yig‘ilish bayonnomasi tuziladi va Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. So‘rov yo‘li bilan o‘tkazilgan Kuzatuv kengashi yig‘ilishi bayonnomasida qo‘shimcha ravishda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- So‘rov yo‘li bilan ovoz berish uchun kiritilgan masalalar;
- Har bir masala bo‘yicha qabul qilingan qarorlar ifodalanganligi;



- Har bir masala bo‘yicha berilgan ovozlar natijasi;
- So‘rov yo‘li o‘tkazilgan yig‘ilish sanasi.

7. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari so‘rov yo‘li bilan Jamiyat kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi lozim.

8. So‘rov yo‘li bilan o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasi Jamiyatning Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan imzolanadi.

9. Jamiyatda texnik vositalar, kuzatuv kengashi a’zolarini identifikatsiya qilish vositalari va boshqa apparaturalar mavjud bo‘lgan taqdirda, kuzatuv kengashining majlislari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkazilishi mumkin.

10. Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari quyidagi hollarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkaziladi:

- Kuzatuv kengashi a’zolari xizmat safarida bo‘lganida;
- Kuzatuv kengashi a’zolari mehnat ta’tilida bo‘lganida;
- boshqa uzrli sabablarga ko‘ra.

11. Kuzatuv kengashining yig‘ilishlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkazishda Jamiyat tomonidan taklif etilgan maxsus dasturiy ta’minot o‘rnatilgan bo‘lishi, Kuzatuv kengashi a’zolarida maxsus qurilma (noutbuk, netbuk yoki anrdroid, IOS dasturida ishlovchi uyali aloqa telefoni) mavjud bo‘lishi va internet tarmog‘iga ulangan bo‘lishi (tezlik kamida 1 mb/sek) hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tizimiga ulanishda autentifikatsiyadan o‘tish bo‘yicha login hamda parolga ega bo‘lishi lozim.

12. Kuzatuv kengashining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkazilgan yig‘ilishlari Kuzatuv kengashi barcha a’zolarining ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishlari bilan bir xil ahamiyatga ega.

13. Kuzatuv kengashining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkazilgan yig‘ilishlarida qonunchilikda belgilangan va Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi Jamiyat faoliyatiga doir barcha masalalar ko‘rib chiqiladi.

14. Kuzatuv kengashining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish rejimida o‘tkazilgan yig‘ilishi bayonnomasi yig‘ilish o‘tkazilgandan so‘ng 10 (o‘n) kundan kechiktirmay tuziladi va Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

## III. Yakunlovchi qoidalar

15. Agar mazkur Reglamentning ma’lum bir qoidalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyatining ustaviga hamda Jamiyatning kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomiga zid kelsa, ushbu qoidalar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan masalalar bo‘yicha mazkur Reglamentga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyat ustaviga va Jamiyatning kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomga amal qilinadi.